

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 198 sahifa.
2026-yil, fevral*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJIRIBASI	66
Alimardonov G’ayratjon Nuraliyevich	
XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o’g’li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA’MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ	101
Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи	
DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	107
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
RAQAMLI MOLIVA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI	117
Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li	
GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI	123
Abdirazakov Akmal Ibragimovich Namozov Og'abek Maxmud o'g'li	
AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS	128
Utkirova Maftuna Murodjon qizi	
O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI	134
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	139
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	150
Akramov Akbarjon Akmal ugli	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI	156
Aminov Abbas Mo'minboy o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR	160
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
MINTAQADA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARIDA MARKETING STRATEGIYASI	165
Yakubov Temur G'anibekovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI	169
Siroj Zarina Rustambekovna	
AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINING YAIM VA BANDLIKKA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	176
Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Ziyodullayev Qahramon	
ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ: ПОЛЬЗА ДЛЯ ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИИ	185
Хамдамова Гавхар Абсаматовна	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISHNING MOLIVAVIY VOSITALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	191
Mamatov Baxodir Quldoshovich	



O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISHNING MOLIYAVIY VOSITALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI



Mamatov Baxodir Quldoshovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi, PhD

ORCID: 0000-0003-4349-7558

Email: bakhodir_kuldoshovich@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada mamlakatda eksport hajmini oshirish maqsadida eksportni rag'batlantirish manbalari va ulardan oqilona foydalanish, moliyaviy vositalar hamda ularni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari yoritilgan. Shuningdek, eksportni rag'batlantirishning xorij tajribasi, bir qator mamlakatlar — Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Turkiya va Hindiston tajribalari o'rganilgan hamda ulardagi eksportni moliyalashtirish vositalari tahlil qilingan. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: eksport, eksportni rag'batlantirish, eksportni moliyalashtirish manbalari, tashqi savdo, bojxona imtiyozlari, Erkin iqtisodiy zonalar, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS).

Abstract. The article covers the sources of export promotion and their rational use, financial instruments and the main directions of their improvement in order to increase the volume of exports in the country. Also, foreign experience in export promotion, the experience of a number of countries - China, Japan, the Republic of Korea, Turkey and India, is studied, and export financing instruments in them are analyzed. At the same time, proposals and recommendations are developed for the Republic of Uzbekistan.

Keywords: Export, export promotion, sources of export financing, foreign trade, customs privileges, Free economic zones, value added tax (VAT).

Аннотация. В статье рассматриваются источники стимулирования экспорта и их рациональное использование, финансовые инструменты и основные направления их совершенствования с целью увеличения объема экспорта страны. Также изучается зарубежный опыт стимулирования экспорта, опыт ряда стран – Китая, Японии, Республики Корея, Турции и Индии, и анализируются инструменты финансирования экспорта в этих странах. Одновременно разрабатываются предложения и рекомендации для Республики Узбекистан.

Ключевые слова: Экспорт, содействие экспорту, источники финансирования экспорта, внешняя торговля, таможенные льготы, свободные экономические зоны, налог на добавленную стоимость (НДС).

KIRISH

Eksportni rivojlantirishni davlat tomonidan rag'batlantirish rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning zamonaviy tashqi savdo siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Davlat eksportini qo'llab-quvvatlash tizimi umuman olganda qulay makroiqtisodiy iqlimni yaratishga hamda ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uchun zarur eksport imtiyozlarini berishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga oladi. Mamlakatlarda eksportni qo'llab-quvvatlash tizimining asosiy elementlariga ikki tomonlama va ko'p tomonlama savdo shartnomalarini tuzish orqali eksport uchun umumiy qulay savdo-siyosiy muhitni yaratish; moliyaviy chora-

tadbirlar, shu jumladan ishlab chiqarishni moliyalashtirish va eksportni to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy qo'llab-quvvatlash; eksportni rag'batlantirish choralari, shu jumladan eksport qiluvchilarni axborot va maslahat bilan qo'llab-quvvatlash hamda tashqi bozorga tovarlar va xizmatlarni taklif qilish bo'yicha amaliy yordam berish kiradi. Bundan tashqari, eksportni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuiga maxsus eksport zonalari faoliyatini tashkil etish kirib, ular doirasida investitsiya importiga bojsiz kirish imkoniyati berilishi, sanoat eksportini yaratish uchun xorijiy investitsiyalar jalb qilinishi hamda kichik va o'rta biznesning eksport salohiyatini rivojlantirish nazarda tutiladi.

Eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning jahon amaliyoti uzoq tarixga ega. AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Kanada va Koreya Respublikasi tajribalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, moliyaviy vositalar eksportni rag'batlantirishning eng samarali shakli hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bir qator tajribadan kelib chiqqan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakatlardagi yaxshi rivojlangan va samarali faoliyat ko'rsatayotgan moliyaviy sektorlar davlatning tashqi savdosini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Xususan, Finger and Shulnetch (1999) moliya sektori xalqaro savdoda muhim xizmatlarni taqdim etishini, agar ushbu xizmatlar mavjud bo'lmasa, savdo operatsiyalari xarajatlari sezilarli darajada oshishini ta'kidlaydi. Ular moliyani savdoni rivojlantirishning muhim vositasi deb bilishadi. Beck (2003) 56 mamlakatda 36 sanoat tarmog'i uchun tashqi moliyalashtirishga bog'liqligi to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalangan holda, moliyaviy sektori yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda tashqi moliyalashtirishdan ko'proq foydalanadigan tarmoqlarda eksportning umumiy hajmi va savdo balansining qiymati yuqori bo'lishi haqida xulosa qilgan. Susanto va Rosson and Costa (2011) moliyaviy rivojlanish ishlab chiqarish tarmoqlarining, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, o'zaro savdo oqimlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatgan.

Assiedu-Appiah (2005) yozishicha, eksport-import shartlariga javob beradigan turli to'lov turlarini taklif qilish imkoniyati mavjud bo'lsa, buyurtma olish ehtimoli yuqori bo'ladi. Auboin (2007) savdo operatsiyalarining 90 foizdan ortig'i turli xil kreditlar, sug'urta yoki kafolatlar bilan bog'liqligini ta'kidlaydi.

Jahon banki ekspertlari Xose Gilherme Rays va Tomas Farol (2012) fikrlariga ko'ra, tashqi moliyalashtirish eksport qiluvchi ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishda eng muhim omil hisoblanadi. Auboin and Engemann (2013) fikriga ko'ra, moliyalashtirish xalqaro savdo va eksport kredit agentliklarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi¹.

Xalqaro hisob-kitoblar bankining ma'lumotlariga ko'ra, savdoni moliyalashtirish bozorining hajmi har yili 12 trln. AQSh dollarini tashkil etadi. Shu bilan birga, global savdoning taxminan uchdan bir qismi bir yoki bir nechta bank savdosini moliyalashtirish vositalari bilan ta'minlanadi, qolgan qismi esa firma ichidagi savdo kreditlari hisobidan moliyalashtiriladi.²

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda jahon savdosi o'sishining pasayishi fonida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ham savdoni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Xalqaro savdo palatasi ta'kidlaganidek: "Savdo, butun dunyo bo'ylab, shubhasiz, savdoni moliyalashtirishga, shu jumladan moliya yoki xavfni kamaytirishga bog'liqdir". Eksportni rag'batlantirish uchun moliyaviy vositalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, aylanma mablag'larni ishlab chiqarish va eksport sanoatini rivojlantirishga mablag' kiritish uchun o'z mablag'lari yetishmayotgan kichik va o'rta korxonalar uchun juda muhimdir.

Mamlakatlarda savdoni moliyalashtirish bozorining rivojlanishi ularning eksport imkoniyatlarini kengaytiradi, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va ish bilan bandlikni oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Osiyo Taraqqiyot Banki tomonidan 114 mamlakat tadbirkorlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, eksport va importni moliyalashtirishning 25 foizga ko'payishi ishlab chiqarishni o'rtacha 30 foizga, bandlikni 20 foizga va biznesni rivojlantirishga sarmoyalarni 19 foizga oshirishga imkon beradi. Osiyo Taraqqiyot Banki ekspertlari savdo moliyalashtirishdagi bo'shliqni qoplash mamlakatlarda o'sish va ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlarini oshiradi, degan xulosaga kelishdi.

O'zbekiston eksportchilarining tashqi moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojlari ham katta. Shu munosabat bilan eng yaxshi xorijiy tajribani o'rganish va uni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini ko'rib chiqish asosida eksportni moliyaviy rag'batlantirish vositalari samaradorligini oshirish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

1 Reis, Jose Guilherme. Trade competitiveness diagnostic toolkit / by Jose Guilherme Reis and Thomas Farole. The World Bank, Washington, DC, USA, 2012. P. 98.

Manba: <https://openknowledge.worldbank.org/bitstream/handle/10986/2248/673620PUB0EPI007869B009780821389379.pdf?sequence=1&isAllowed=y>

2 Trade Finance and SMEs. Bridging the gaps in provision. World Trade Organization. P. 12-13. Manba: https://www.wto.org/english/res_e/booksp_e/tradefinsme_e.pdf



Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

1-taklif. Eksportni rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari berish.

Eksportni rag'batlantirish vositasi sifatida soliq imtiyozlari ko'plab mamlakatlarda faol qo'llaniladi. Osiyo mamlakatlarida eksportni rag'batlantirish asosan bojxona to'lovlari va soliqlarni to'lashdan ozod qilish, shuningdek, imtiyozli soliq rejimi o'rnatilgan maxsus iqtisodiy zonalar yaratish orqali amalga oshiriladi. Yevropa mamlakatlari eksportni rag'batlantirishni soliq imtiyozlari berish orqali emas, balki asosan moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshiradilar. Eksportchilar uchun soliq imtiyozlari asosan maxsus iqtisodiy zonalar doirasida soliq va bojxona imtiyozlari hamda QQSdan qisman yoki to'liq ozod qilish shaklida yaratiladi. Masalan, Lotin Amerikasida erkin savdo zonalar va maxsus iqtisodiy zonalar yaratish amaliyoti ham keng tarqalgan bo'lib, ular orqali eksport soliqlar, bojxona to'lovlari va QQSdan ozod qilish orqali rag'batlantiriladi.

Soliq imtiyozlariga quyidagilar kiradi:

- eksport tovarlarini ishlab chiqarishda foydalaniladigan asosiy vositalar, uskunalar yoki xomashyo hamda butlovchi qismlarni olib kirishda bojxona to'lovlaridan ozod qilish;

- eksport bo'jlaridan ozod qilish;
- eksportdan tushadigan tushumga soliq solishning imtiyozli rejimi;
- valyuta tushumi hajmiga qarab daromad solig'ini kamaytirish;
- eksport ko'rsatkichlariga qarab ichki savdo uchun soliq imtiyozlari;
- qo'shimcha bojxona to'lovlarini qaytarish;
- import qilinadigan materiallar uchun to'langan bo'jlar bo'yicha soliq imtiyozlari;
- eksportda mahalliy tarkibiy qismlarni ishlatish uchun daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar;
- eksport tarmoqlari uchun chet el xarajatlari va kapitalga qo'shimcha to'lovlarni kamaytirish;
- QQS bo'yicha daromadlar yoki kreditlar uchun soliqni kamaytirish.³

2-taklif. Eksportni oshirishda tadbirkorlarga subsidiya va kompensatsiya berish amaliyotini joriy etish.

Mamlakatlarda qo'llaniladigan moliyaviy eksportni rivojlantirish vositalariga bevosita va bilvosita subsidiyalar kiradi. Xususan, Amerika Qo'shma Shtatlarida federal subsidiyalar grantlar, soliq imtiyozlari, kafolatlangan kreditlar va to'g'ridan-to'g'ri to'lovlar shaklida bo'ladi.

Yaponiyada sanoat, qishloq xo'jaligi, baliqchilik va moliya sektori uchun 66 ta milliy va mahalliy subsidiya sxemalari mavjud. Subsidiyalarning aksariyati grantlar shaklida taqdim etiladi. Iqtisodiy faoliyatning ayrim turlarini rag'batlantirish uchun foiz stavkalaridagi subsidiyalar va kreditlash yo'llari orqali beriladi.

Koreya Respublikasida eksportchilarning marketing xarajatlarini kamaytirish uchun hukumat ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlariga (meva, gul, sabzavot, kimchi, jenshen, chorvachilik, don va qayta ishlangan oziq-ovqat, an'anaviy likyor) eksport subsidiyalarini taqdim etadi. Daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar Erkin savdo zonalarida joylashgan xorijiy korxonalarga beriladi.

Xitoyning amaldagi soliq imtiyozlari ilg'or texnologiyalar va eksportga yo'naltirilgan korxonalar, shuningdek, kam daromad bilan ishlaydigan yoki mamlakatning iqtisodiy jihatdan nochor yoki chekka hududlarida joylashgan xorijiy sarmoyador korxonalar uchun mavjud. Chet ellik investorlarni strategik qiziqishning ayrim sohalariga jalb qilish maqsadida Xitoy atrof-muhitni muhofaza qilish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, suv va energiyani tejash sohasidagi loyihalar uchun soliq imtiyozlarini taklif qilmoqda.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qo'llaniladigan eksport ishlab chiqarishni rag'batlantirishning eng keng tarqalgan vositalaridan biri eksport mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalaniladigan mahsulotlar bo'yicha import bojxona to'lovlarini qaytarish yoki ulardan ozod qilishdir. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida eksport qilinadigan yoki eksport tovarlarini ishlab chiqarishda foydalaniladigan tovarlar uchun import bo'jlarini qaytarish nazarda tutiladi. Pulni qaytarish bojxona bo'jlar, aksizlar va import uchun to'lanadigan bojxona to'lovlari hamda yuklarni tashish uchun to'lovlar va bojxona omborida saqlash uchun soliqning 99 foizigacha bo'lishi mumkin. Koreya Respublikasida eksport tovarlarini ishlab chiqarishda foydalaniladigan xomashyo bojxona to'lovlaridan ozod qilingan va bojxona to'lovlari sxemasi doirasida ularni qaytarish ko'zda tutilgan. Koreya mahsulotlarini eksport qilishda ham QQSning nol stavkasi qo'llaniladi.

Xitoy eksportini rag'batlantirishning muhim mexanizmi barcha eksport qilinadigan tovarlar bo'yicha QQSni qaytarishdir. QQSni qaytarish miqdori mahsulot turiga qarab farq qiladi, hozirgi vaqtda QQSni qaytarish stavkalari 17 foiz, 15 foiz, 13 foiz, 9 foiz, 5 foiz va 0 foizni tashkil etadi. Eksport qilinadigan tovarlarning 70 foizidan ko'prog'iga QQSni qaytarish stavkalari 17 foiz va 15 foizga teng.

Masalan, 17 foizlik QQSni qaytarish stavkasi to'qimachilik, mashinasozlik va transport uskunalariga, 15 foizlik stavka oziq-ovqat mahsulotlari, poyabzal va bosh kiyimlar eksportiga taalluqlidir, mineral mahsulotlar va xomashyo eksportiga esa QQS qaytarilmaydi. Shunday qilib, QQSni qaytarish stavkalarining turli-tumanligi orqali Xitoy hukumati yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantiradi.

3 Tax Incentives and Foreign Direct Investment. A Global Survey, UNITED NATIONS, New York and Geneva, 2000, r.17. Manba: https://unctad.org/system/files/official-document/iteipcmisc3_en.pdf

Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) Hindistonda eksportni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Hozirda Hindistonda 352 ta EIZ mavjud. EIZ hududida faoliyat yuritadigan korxonalar turli xil soliqlarni to'lashdan, shu jumladan daromad solig'i, savdo-aylanma solig'i va xizmat solig'ini to'lashdan ozod etiladi. EIZ korxonalari o'zlariga kerakli tovarlarni bojxona to'lovlarini to'lamasdan olib kirishlari mumkin. Hindistonning EIZ hududida faoliyat yuritadigan korxonalar asosan kimyoviy mahsulotlar, dori vositalari, kompyuter va dasturiy ta'minot hamda zargarlik buyumlarini eksport qilmoqda. Hindistondagi eksportga yo'naltirilgan korxonalar, shuningdek, eksport tovarlarini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan asosiy vositalar, xomashyo va materiallarni sotib olishda bojxona bojlari va aksiz solig'idan ozod qilingan.

Turkiya eksportni tartibga solishda ikkita asosiy tartibga ega: ichki ishlov berish va tashqi ishlov berish. Ichki ishlov berish rejimiga binoan eksport tovarlarini ishlab chiqarishda foydalaniladigan chetdan keltiriladigan xomashyo va butlovchi qismlar bojxona to'lovlari va boshqa soliqlardan ozod qilinadi. Tashqi ishlov berish tartibiga binoan, keyinchalik qayta ishlash operatsiyalarini bajarish uchun Turkiyaning bojxona hududidan erkin muomalada bo'lib turgan tovarlarni vaqtincha olib chiqib ketishga imkon beriladi. Shu bilan birga, tovarlar import bojlaridan to'liq yoki qisman ozod etilishi mumkin. Bojlar miqdori eksport qilinadigan va kelgusida qayta ishlab import qilinganda o'rtadagi bojlar farqi asosida hisoblanadi. Turkiyadagi eksport tovarlari ham QQSdan ozod qilingan⁴.

Turkiyada nodavlat notijorat tashkilotlari yoki Savdo-sanoat palatasi, Turkiya tashqi iqtisodiy aloqalar kengashi va Turkiya eksportchilar assambleyasi kabi xususiy tashkilotlar eksportni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, Turkiya eksport qiluvchilar assambleyasi 60 ga yaqin eksportchilar birlashmalari yoki uyushmalarini birlashtiradi. Assambleyaning asosiy vazifasi eksportni rivojlantirish masalalarida davlat va xususiy tashkilotlar o'rtasida muvofiqlashtirishni ta'minlashdir. Assambleya 71 mingdan ortiq eksport qiluvchi firmalar va ularning kasaba uyushmalariga turli xil xizmatlarni taqdim etadi.

Turkiyada eksportchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator hukumat dasturlari mavjud, jumladan qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini moliyalashtirish, eksport qiluvchilarning brendi va reklamasini targ'ib qilish, texnik konsalting xizmatlarini ko'rsatish uchun davlat yordami va boshqalar. Bundan tashqari, turk kompaniyalariga chet elda o'z faoliyatini rivojlantirish uchun qo'shimcha imtiyozlar beriladi.

Bundan tashqari, Turkiya 2004-yildan buyon milliy TURQUALITY brendlash dasturini amalga oshirib kelmoqda.⁵ Uning asosiy vazifasi kompaniyalarni o'z brendini yaratishda qo'llab-quvvatlash, chet elda "promo" tadbirlarini o'tkazish va chet elda turk brendlarini qo'llab-quvvatlashdir. Dastur doirasida davlat patentlarni olish, "promo" tadbirlarini o'tkazish, ofis va boshqa binolarni ijaraga olish hamda sertifikatlashtirish uchun kompaniyalarning chet el xarajatlarning 50 foizini to'laydi va maslahat xarajatlari hamda xodimlarni yollash xarajatlarning bir qismini qoplaydi.

Shuningdek, Turkiya eksport strategiyasiga ko'ra, hukumat bir qator tadbirlarni amalga oshirishni ko'zlamoqda, jumladan:

- sanoatdagi tarkibiy o'zgarishlar: yuqori QQSGa ega bo'lgan va yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish;
- sohalarning eksport salohiyatini oshirish maqsadida ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish;
- eksportchilarning xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etishiga ko'maklashish;
- eksport tarkibi va geografiyasini diversifikatsiya qilish;
- savdo faoliyatini bozorlarga maqsadli yo'naltirish;
- kichik va o'rta biznes bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarning eksport salohiyatini oshirish;
- global turk markalari sonini ko'paytirish;
- Istanbulni xalqaro moda, yarmarkalar va savdo markaziga aylantirish;
- eksport uchun muhim resurslar bilan ta'minlanish;
- xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish uchun tarmoq klasterlarini yaratish;
- logistika mexanizmlarini takomillashtirish;
- eksportni moliyalashtirishning yangi vositalarini ishlab chiqish.⁶

Eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash xalqaro savdoni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. JST ekspertlarining ta'kidlashicha, global savdoning 80% dan ortig'i savdoni moliyalashtirish yoki kredit sug'urtasi vositalari bilan ta'minlanadi.⁷ Eksportni kredit va kafolatli qo'llab-quvvatlash choralari, ayniqsa eksport qiluvchi yetakchi mamlakatlarda — AQSh, Germaniya, Yaponiya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Koreya Respublikasida faol qo'llaniladi.

4 Trade.gov.tr. 2021. Republic of Turkey - Ministry of Trade. [online] Manba: <https://www.trade.gov.tr/legislation/export>

5 Trade.gov.tr. 2021. Republic of Turkey - Ministry of Trade. [online] Manba: <https://www.trade.gov.tr/turquality/turquality>

6 Trade.gov.tr. 2021. [online] Manba: <https://www.trade.gov.tr/data/5b90d2eb13b8760beca887fd/2023%20EXPORT%20STRATEGY.pdf>

7 Trade Finance and SMEs. Bridging the gaps in provision. World Trade Organization. P. 5. [online] Manba: https://www.wto.org/english/res_e/booksp_e/tradefinsme_e.pdf



1960-yillardan boshlab Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash shartlari bo'yicha mamlakatlar o'rtasida sog'lom raqobatni yaratish uchun hujjatlarni ishlab chiqa boshladi. Rasmiy qo'llab-quvvatlash uchun teng sharoitlarni yaratish maqsadida IHTTning bir qator a'zolari (Avstraliya, Kanada, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Janubiy Koreya, Yangi Zelandiya, Norvegiya, Shveytsariya va boshqalar) 1978-yilda "rasmiy qo'llab-quvvatlanadigan eksport kreditlari to'g'risida" shartnoma tuzdilar, eksport kreditlarini berish shartlariga cheklovlar qo'ydilar. Natijada eksport qiluvchilar o'rtasidagi raqobat moliyalashtirishning qulay shartlariga emas, balki eksport qilinadigan tovarlar va xizmatlarning sifati hamda narxiga asoslanadigan bo'ldi. Xususan, hozirda amalda bo'lgan shartnomada: "Eksportni kreditlash siyosati ochiq raqobat va erkin bozor kuchlariga asoslangan bo'lishi kerak", deyilgan.⁸

IHTT shartnomasi ko'proq "janoblarcha" kelishuv bo'lib, u IHTT a'zolari rasmiy qo'llab-quvvatlanadigan eksport kreditlarini taqdim etishlari kerak bo'lgan eng qulay shartlar va talablarni tavsiflaydi. Shartnoma shartlariga rioya qilish qonuniy kuchga ega bo'lmasa-da, IHTT mamlakatlaridagi moliya institutlari ularni "o'yin qoidalari" deb bilishadi va o'rta hamda uzoq muddatli kreditlar berishda ularga amal qilishadi. Shu bilan birga, IHTT shartnomasi bilan tartibga solinadigan moliyaviy operatsiyalarning eksportchilarga ko'rsatiladigan moliyaviy ko'makning umumiy hajmidagi ulushi so'nggi yillarda kamayib bormoqda. Misol uchun, eksport biznesini kengaytirish uchun kreditlar va sug'urta berish, eksport qiluvchilar uchun ta'minot zanjirlarini moliyalashtirishni keltirib o'tish mumkin.⁹

IHTT tasnifiga ko'ra, eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Eksport bo'yicha kredit kafolatlari yoki sug'urta;
2. Rasmiy moliyaviy ko'mak:
 - to'g'ridan-to'g'ri qarz berish, moliyalashtirish va qayta moliyalashtirish;
 - foiz stavkasining bir qismini moliyalashtirish;
 - yuqoridagi ikki usulning kombinatsiyasi.

Qisqa muddatli eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalari (1 yilgacha bo'lgan muddat) asosan xaridor tomonidan nisbatan tez sotilishi mumkin bo'lgan tovarlarga (yarim tayyor mahsulotlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xomashyo) qismlarga bo'lib to'lash uchun taqdim etiladi hamda uzoq muddatli moliyaviy vositalar (1 yildan ortiq muddatga) uch yildan ortiq muddatga ega bo'lgan tayyor mahsulotlar va investitsiya mollarini yetkazib berishni moliyalashtirish uchun ishlatiladi.

Chet mamlakatlarda eksportni rasmiy moliyaviy qo'llab-quvvatlash ixtisoslashtirilgan davlat moliya institutlari — Eksport kredit agentliklari (EKA) va Eksimbanklar orqali amalga oshiriladi.

XVF tomonidan belgilab qo'yilganidek, EKAlar yangi ishbilarmonlik imkoniyatlarini izlayotgan korporatsiyalarga hukumat tomonidan kreditlar, kafolatlar va sug'urta beradigan agentlikdir. EKAlar rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda yangi korporativ moliyalashtirish sxemalari uchun juda xavfli deb hisoblanadi.

Inqirozdan keyingi davrda moliya bozorlarida kuzatilgan beqarorlik sharoitida eksportni uzoq muddatli moliyalashtirishda banklarning roli birmuncha susayadi. Natijada, eksport operatsiyalarini moliyalashtirishda EKAlarning roli eksport qiluvchilarga to'g'ridan-to'g'ri kredit berish yoki sug'urta qilish hamda tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlarini kafolatlash orqali ortadi.

3-taklif. EKA faoliyati orqali eksportni davlat tomonidan moliyalashtirish.

Birinchi EKA 1915-yilda Buyuk Britaniyada tashkil etilgan. Keyinchalik bunday moliya institutlari rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda keng tarqaldi. Garchi har bir EKA o'z faoliyati, vazifalari, boshqaruvi va funksiyalarini tashkil etishda o'ziga xos xususiyatga ega bo'lsa-da, ularning barchasi to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish, investitsiyalar, sug'urtalashning turli shakllari va boshqa moliyaviy vositalar orqali davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni amalga oshiradi.

Hozirgi vaqtda mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan EKAlar moliyaviy operatsiyalar doirasini sezilarli darajada kengaytirdi va tashqi savdoni moliyalashtirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan vositalarni ham o'z ichiga oladi. Xususan, bularga eksport qiluvchi korxonalarining aylanma mablag'larini to'ldirish uchun kreditlar va sug'urta, eksport qiluvchilarning ishlab chiqarishlarini kengaytirish uchun kreditlar, eksport qiluvchilarning yetkazib berish zanjirlarini sug'urtalash kiradi. Bundan tashqari, kichik biznes va tashqi iqtisodiy faoliyatning yangi ishtirokchilari uchun qo'shimcha moliyaviy bo'lmagan xizmatlar, shu jumladan konsultatsiyalar, bozor tadqiqotlari, sheriklar izlash, tashqi bozorlarda biznesni rejalashtirish va rivojlantirish xizmatlari ko'rsatiladi.

Ko'pgina hukumatlar eksport kreditlarini eksportni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning muhim siyosiy vositasi deb bilishadi va banklar hamda moliya institutlariga davlat kafolatlari va sug'urtalarini

8 OECD Arrangement on Officially Supported Export Credits. 1 February 2017. [online] Manba: [http://www.oecd.org/officialdocuments/publicdisplaydocumentpdf/?doclanguage=en&cote=tad/pg\(2017\)1](http://www.oecd.org/officialdocuments/publicdisplaydocumentpdf/?doclanguage=en&cote=tad/pg(2017)1)

9 Report to the U.S. Congress on Global Export Credit Competition. Export-Import Bank of the United States, June 2016. P. 8. [online] Manba: <https://www.exim.gov/sites/default/files/reports/2015EXIMCompetitiveReportFINAL-v3.3.pdf>



taqdim etish orqali kredit olish imkoniyatlarini kengaytirish ustida ishlamoqdalar. So'nggi yillarda mamlakatlarda kreditni qo'llab-quvvatlash hajmining pasayishiga qaramay, EKA respondentlarining 94 foizi kelajakda eksportni kreditlash ko'lamini o'sishini kutmoqdalar va respondentlarning yarmidan ko'pi eksport kreditlarining o'sishi kamida 10 foizga oshishini ta'kidlashmoqda.¹⁰

Mamlakatda eksportdan keyingi moliyalashtirishning samarali mexanizmini yaratish va qo'llab-quvvatlash korxonalarning eksport faoliyatini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Tashqi bozorlarda muvaffaqiyat qozonish va raqobatda g'olib bo'lish uchun eksportchilar o'zlarining potensial xaridorlariga qulay shartnoma shartlarini, shu jumladan import qilinadigan tovarlarga tegishli to'lov shakllarini taklif qilishlari shart. Eksport-import operatsiyalari uchun to'lovlarning eng keng tarqalgan shakllari oldindan to'lash, akkreditiv, inkasso va ochiq hisob-kitob qilish hisoblanadi. Oldindan to'lash eksportchi uchun qulay, ammo importyor uchun eng xavfli hisoblanadi. Akkreditiv tranzaksiya xarajatlari nuqtayi nazaridan qimmatga tushadigan mexanizm bo'lib, inkasso jo'natilgan tovarlar uchun to'lovni kafolatlamaydi. Ochiq hisobvaraqdan foydalanilganda esa import qiluvchi uchun hisob-kitoblarning eng jozibali shakli yuzaga keladi, biroq turli xil xatarlarning oldini olish vositalaridan foydalanish, masalan, davlat kafolatlari va eksport kreditlarini sug'urtalash, eksport qiluvchilar uchun to'lovlarni to'lamaslik xavfini minimallashtiradi.

Mamlakatlarda keng qo'llaniladigan savdo moliyalashtirishning muhim vositasi xalqaro faktoring bo'lib, u tovar va xizmatlarni yetkazib berishni kechiktirilgan to'lov asosida moliyalashtiradi. Shveytsariya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Germaniya va AQSh kabi bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda faktoring xizmatlari o'sish sur'atlari bo'yicha moliya sanoatining jadal rivojlanayotgan tarmoqlari orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Xalqaro savdo palatasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda xalqaro faktoringning global hajmi 530 milliard yevroni tashkil etgan bo'lib, uning 65 foizi Yevropaga, 24 foizi Osiyoga, 8 foizi Amerikaga, 1 foizi Afrikaga va 2 foizi Avstraliyaga to'g'ri keladi.¹¹

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy mamlakatlar tashqi savdoni rag'batlantirishda u yoki bu usullarni qo'llagan holda tadbirkorlarga ko'maklashadi. Qaysi usullarni qo'llashni esa mamlakat o'z ichki imkoniyatlari va milliy iqtisodiyotning holatidan kelib chiqqan holda belgilashga harakat qiladi.

O'zbekiston ham keyingi yillarda ko'p vektorli ochiq iqtisodiyot olib bormoqda va bu orqali tashqi savdo siyosatida o'zining raqobatbardoshligini yaxshilashga katta e'tibor qaratmoqda. Chunki keyingi yillarda jahon savdo tizimi shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Xomashyo eksportining jahon bozori birjalaridagi narxlarga bog'liqligining ortib borishi mamlakatlar oldiga qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar eksportini amalga oshirish muhim ekanligini yana bir bor isbotlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Reis, Jose Guilherme. Trade competitiveness diagnostic toolkit / by Jose Guilherme Reis and Thomas Farole. The World Bank, Washington, DC, USA, 2012. P. 98.
2. Trade Finance and SMEs. Bridging the gaps in provision. World Trade Organization. P. 12-13.
3. The ICC Global Survey on Trade Finance 2016: Rethinking Trade and Finance. International Chamber of Commerce, October 2016. P. 37.
4. Tax Incentives and Foreign Direct Investment. A Global Survey, UNITED NATIONS, New York and Geneva, 2000, r.17.
5. Trade.gov.tr. 2021. Republic of Turkey - Ministry of Trade.
6. Trade Finance and SMEs. Bridging the gaps in provision. World Trade Organization. P. 5.
7. OECD Arrangement on Officially Supported Export Credits. 1 February 2017. [online]
8. Report to the U.S. Congress on Global Export Credit Competition. Export-Import Bank of the United States, June 2016. P. 8. [online]
9. Report to the U.S. Congress on Global Export Credit Competition. Export-Import Bank of the United States, January 2016. P. 28. [online]
10. The ICC Global Survey on Trade Finance 2016, r. 104. [online]

10 Report to the U.S. Congress on Global Export Credit Competition. Export-Import Bank of the United States, January 2016. P. 28. [online] Manba: https://www.exim.gov/sites/default/files/reports/EXIM-Competitiveness-Report_June2017.pdf

11 The ICC Global Survey on Trade Finance 2016, r. 104. [online] Manba: <https://iccwbo.org/content/uploads/sites/3/2016/10/ICC-Global-Trade-and-Finance-Survey-2016.pdf>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100